

## Za'faron o'simligi va uning kelib chiqish tarixi, inson salomatligiga ahamiyati

UrDU, 231M-guruh magistranti Ho'sinova Gulasal Shamsiddin qizi

**Annatsiya.** Ushbu maqolada za'faron o'simligining inson salomatligidagi ahamiyati, kelib chiqish tarixi hamda za'faron o'simligidan tayyorlanadigan dorivor choy haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** yevropa, piyozboshli o'simlik, triploid nav, stigma, onkologik kasallik, aromatik birikmalar.

Za'faron o'simligi gulsapsardoshlar oilasiga mansub piyozboshli o'simlik hisoblanib, Yevropa, Osiyo va Amerikada yetishtiriladi. Za'faron o'simligi mamlakat iqtisodiyotida katta ahamiyatga ega o'simlik hisoblanadi, chunki za'faron ham dorivor ham ziravor o'simlik hisoblanadi. Za'faron tarkibidagi aromatik birikmalar unga o'ziga xos ta'm va hid beradi, bu esa o'z navbatida za'faron qo'shilgan ichimlik va taomlarni juda laziz va shifobaxsh bo'ladi.

Aslida Za'faron o'simligi ikkita noma'lum turning tasodifiy chatishishidan kelib chiqqan tur hisoblanadi, unda sakkizta uchlik – triploid nav bo'lganligi sababli, uni urug'idan ko'paytirishning iloji yo'q. Za'faron o'simligini faqatgina vegetativ usulda – piyozboshlari orqali ko'paytiriladi, bu esa o'z navbatida za'faronning qiymatini yanada orttiradi. Har bitta gulda faqatgina 3 ta stigma mavjud bo'lib, yaroqli bo'lgan 1 kg stigma to'plash uchun 150 000 dona guldagi stigmalarni yig'ib chiqish talab etiladi. Bundan tashqari, za'faron gullay boshlashidan 24 soat o'tib gullari qurib tusha boshlaydi, bu esa uni tezkorlik bilan yig'ib olish lozimligini bildiradi. Bu jarayonni yana bir nozik tamoni esa gullarini qo'lda yig'ib olish kerakligi hisoblanadi.

Research Science and  
Innovation House





Bugungi kundagi ko‘pchilik onkologik kasalliklarga shifo, ziravorlar sultoni bo‘lgan gulsafsardoshlar oilasiga mansub za‘faron o‘simligi - Eronda, *Crocus cartwrightianus* kelib chiqqan deb tahmin qilinadi. Za‘faron o‘simligi steril triploid nav hisoblanib, har bir to‘plamda 8 ta xromasomani jamlaydi va 24 tani hosil qiladi. Buning natijasida *Crocus sativus* urug‘idan ko‘paya olmaydi. Uni faqatgina vegetativ usulda – piyozchalaridan ko‘paytirish mumkin. Shunga qaramasdan dunyo bo‘ylab za‘faron yetishtirish plantatsiyalari yildan yilga oshib bormoqda.

Bugungi kunda za‘faronni Eron, Hindiston, Afg‘oniston, Ispaniya, Italiya kabi mamlakatlarda yirik plantatsiyalari bor.

Za‘faron qo‘shib tayyorlangan choy ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, asal bilan qo‘shib tayyorlangan za‘faronli choy yuzlarimizni tiniqlashtiradi, oshqozon-ichak hamda buyrak hastaliklariga da‘vo bo‘la oladi, sababi, za‘faron tarkibidagi fitokimyoviy modda buyrak va oshqozon-ichaklardagi pH muhitga juda ham mos keladi va uni qayta tiklanishiga yordam bera oladi.

Agar za‘faronni asalga aralashtirib yuz va qo‘l terilariga surilsa, ularni oziqlanishiga va porlashiga ko‘makchi bo‘ladi. Biroq za‘faronni homilador ayollarga tavsiya qilib bo‘lmaydi, sababi uning yuqori darajadagi pH muhiti homilanig erta tug‘ilishiga sabab bo‘la oladi.





Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, za‘faron o‘simligi dorivor hamda ziravor o‘simlik hisoblanib, za‘faron o‘simligi yetishtiradigan davlatlar iqtisodiyotiga juda katta foyda olib keladi. Za‘faron o‘simligini yig‘ib olish va yetishtirish qiyin bo‘lsada, ko‘pchilik davlatlar za‘faron yetishtirish uchun har yili ko‘plab mablag‘ ajratadilar. Yaqin yillardan beri O‘zbekiston Respublikasiga ham za‘faron introduksiya qilinib, yetishtirila boshlandi. Bu esa o‘z navbatida xalqimiz uchun juda katta imkoniyatlar eshigini ochishi shubhasizdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Saffron (*Crocus sativus* L.): phytochemistry, therapeutic significance and omics-based biology**, Deepu Pandita, Government Department of School Education, Jammu, Jammu and Kashmir, India.
2. Rana SS, Sood P, Mondal KK, Thakur KS (2003) Eds. *Technology for saffron cultivation*; Mountain Agricultural Research and Extension Centre publication: Sangla (Kinnaur), HP, India, 20.
3. Al-Mofleh, I. A., Alhaider, A. A., Mossa, J. S., Al-Sohaibani, M. O., Qureshi, S., & Rafatullah, S. (2006). Antigastric ulcer studies on ‘saffron’ *Crocus sativus* L. in rats. *Pakistan Journal of Biological Science*, 9, 1009–1013.
4. <https://www.mdpi.com/1420-3049/24/15/2827>
5. <https://www.sci.news/archaeology/saffron-crocus-domestication-10607.html>
6. Saffron : science, technology and health. A. Koochehi, Mohammad Khajeh-Hosseini. Duxford, United Kingdom. 2020. ISBN 978-0-12-818740-1. OCLC 1140113593
7. <https://www.borgenmagazine.com/>

